BUXORO YETTI PIRLARI MANAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Samatov. X
Najmiddinov. M
TATU Samarqand Filiali Kompyuter Injinering
fakulteti KI23-01 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxororing yetti piri haqida fikir yuritilga bo'lib**,** islom olamida mashhur buyuk avliyolar yetti pir nomini olgan tariqat va tasavvuf olamining yirik namoyandalari haqida umimiy mulohaza yuritilgan.
Kalit so'zlar: yetti pir, Buxoro, muqaddas, maqbara, yodgorlik, imom, tariqat, afsona, tabib.

Buxoro – Naqshbandiya tariqati yettita buyuk so'fiylarining vatanidir. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoro ning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma'naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bu yerda muqaddas so'fiylarning dafn etilgan joylari – pirlar, islomiy ziyoratgohlar saqlanib qolgan.

Pir forscha: (**keksa, qari**) — so'fiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Shuningdek, har bir murid o'z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida pir tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi.

Yetti pir - Buxoro viloyatining turli tumanlarida joylashgan, muqaddas ziyoratgohlar majmuasi, naqshbandiya tariqatining ketma-ket yetti halqasi. Bu halqa Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniydan boshlanib, Xo'ja Orif Revgariy, Xo'ja Mahmud Anjirfag'naviy, Xo'ja Ali Romitaniy, Xo'ja Muhammad Bobo Samosiy, Xo'ja Sayyid Amir Kulol orqali Xo'ja Bahouddin Naqshband bilan tugaydi. Sayyid Vasliy Samarqandiyning 1913 yili tojik tilida she'riy yo'l bilan bitilgan «Nazm as-silsila» asarida yetti pir silsilasi va uning ketma - ketligi xaqida keltirilgan.

O'tgan asrlardan buyon yetti pir qabrini bir kunda yuqorida keltirilgan ketma-ketlikka qat'iy amal qilgan holda ziyorat qilish an'anasi shakllangan. Hattoki, ziyorratgohga kelgan xorijliklar ham shu an'anaga amal qilishadi. Faqat Xo'ja Bahouddin Naqshband qabriga o'tishdan oldin shu majmuada joylashgan uning onasi qabrini ziyorat qilish qoidaga kiritilgan.

Naqshbandiya tariqati yettita buyuk so'fiylarining vatanidir. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoro ning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma'naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bu yerda muqaddas so'fiylarning dafn etilgan joylari – pirlar , islomiy ziyoratgohlar saqlanib qolgan.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy. Buxoroga ziyoratga kelganlarning ko'pchiligi o'z safarlarini Naqshbandiya ta'limotiga asos solgan ma'naviy ustoz Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar. Abduxoliq G'ijduvoniy payg'ambarning o'ninchi avlodi bilan ma'nan bog'liq.Maqbara ayvonining o'nta ustun va tayanchi o'ninchi avlodga ishora. Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniy davrida maqbara chillaxona vazifasini o'tagan bo'lib, u yerda qirq kunlik jazirama issiq davrda odamlar ibodat qilish uchun kelgan. Vaqt o'tishi bilan muqaddas ibodat joyi ardoqli ziyoratgohga aylanadi.Yaqin o'tmishda maqbara tashlandiqqa aylangan edi. Maqbara bugungi namunaviy shaklga ega bo'lishi uchun bir necha zamonadan omon o'tib kelishi kerak bo'ldi. Hozirda Abduxoliq G'ijdunoniy maqbarasi qadimgi Sharqning bir qismi, er va osmon orasidagi rishta hisoblanadi.U Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida dafn etilgan.

Xo'ja Muhammad Orif ar-Revgariy Xo'ja Muhammad Orif ar-Revgari maqbarasi murshid Xo'ja Orif Revgariyning dafn etilgan joyidir. U XII asrning o'rtalarida Revgar qishlog'ida tug'ilib, buyuk murshid Abduxoliq G'ijduvoniyning muridi bo'lgan. Buyuk ustozning vafotidan so'ng, u qolganlarga ruhiy murabbiy bo'lish uchun ruxsat olgan. Umrining oxirigacha faol diniy faoliyat bilan

shug‘ullangan. Baland ovozda zikr qilishni xush ko‘rgan. Xo‘ja Orif 150 yil umr ko‘rganligi haqida afsonalar mavjud. U Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida dafn etilgan.

Xo‘ja Maxmud Anjir Fag‘naviy Xo‘ja Maxmud Anjir Fag‘naviy maqbarasi – eng buyuk so‘fiy, murshidning dafn etilgan joyi. Vobkent shahri yaqinida tug‘ilgan. Hayot yo‘lining boshlanishida hunarmand va duradgor bo‘lgan. Ilm olishning mashaqqatli yo‘lini bosib o‘tib, murshidlikka erishdi. Mahmud Anjir Fag‘naviy “g‘aflatda uxlab yotganlar uyg‘onishi kerak” deb birinchilardan bo‘lib zikrni baland ovozda o‘qigan. U o‘z ona qishlog‘i Anjirbog‘da dafn qilingan.

Xo‘ja Ali Romitaniy Xo‘ja Ali Romitaniyning yodgorlik majmui – so‘fiylik tariqatining xo‘jagoniy yo‘nalishi taniqli murshidi dafn etilgan joydir. So‘fiyga xalq orasida «Azizxon» – aziz shayx nomi berilgan. XII asrning oxirida Romitan shahrida tug‘ilgan. Butun hayoti davomida to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Ali Romitaniy amalga oshirish imkoni bo‘lmagan ishni – mo‘g‘ullarni islom dinini qabul qilishiga erishdi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin yaroqsiz yerlarni tiklashga yordam bergan, tabiblik bilan shug‘ullangan. Afsonaga ko‘ra, so‘fiy odamlarning fikrlarini o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lib, unga savolga berishlaridan oldin javob qaytargan. Uzoq va taqvoli hayoti davomida uning ko‘plab shogirdlari bo‘lgan, ularning orasida o‘g‘illari ham bor edi. Kichik o‘g‘li Xo‘ja Ibrohimga o‘z ta’limotini davom ettirishni vasiyat qilgan.

Xo’ja Muhammad Bobo Samosiy Xo’ja Muhammad Bobo Samosiy yodgorlik majmui – Xo‘ja Ali Romitaniyning shogirdi mashhur so‘fiyning dafn qilingan joyidir. Xo‘ja Samosiy so‘fiylik rivojiga bebaho hissa qo‘shgan, buyuk inson – Muhammad Bahouddin Naqshbandning dunyoga kelishini bashorat qilgan. Afsonada aytilishicha, kunlarning birida, Bahouddinning ona qishlog‘i Qasri Hiduvon yonidan o‘tayotib so‘fiyda kashf yuz bergan. U mazkur joyda so‘fiylik va ma’rifatning buyuk farzandi dunyoga keladi, bu yerning nomi esa oriflar qishlog‘i bo‘ladi deb aytgan.Murshid 1354-yilda 95 yoshida vafot etgan. Muqaddas maqbara Romitan tumanining Simas qishlog‘ida joylashgan. Ushbu yerda ajoyib insonning o‘z ta’limotlariga monand ravishda maqbara, masjid, quduq va go‘zal bog‘ barpo etilgan.

Xo‘ja Sayid Amir Kulol Buxoriy Sayid Amir Kulol diniy ulamo bo‘lib, yuzdan ortiq izdoshlarga ega edi, ular orasida Bahouddin Muhammad Naqshbandiy ham bor edi. U Naqshbandiyni so‘fiylik asoslari, zikrni to‘g‘ri o‘qish va xo‘jagoniy tariqatining an’analari bilan tanishtirdi. O‘sha paytlarda eng qadrli va aziz ruhiy o‘g‘lini ishonib topshirayotganligini anglab yetgan shayx Xo‘jai Samosiy ustozni Buyuk murid bilan tanishtirgan, degan fikr ham bor. Sayid Amir Kulol 1370-yilda o‘zining tug‘ilib o‘sgan Suxar qishlog‘ida dafn etilgan.

Bahouddin Naqshbandiy Bahouddin Naqshband (Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy) 1318-yil, Chig‘atoy ulusi, Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘iladi. Bahouddin Naqshband Muhammad payg‘ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan va ota tomondan 11-imom Imom Xasan al-Askariyning ikkinchi o‘g‘li Sayyid Ali Akbarni avlodi hisoblanadi. Otasi Muhammad Buxoriy to‘quvchi hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan va o‘g‘li ham bu hunarni egallaydi.Bahouddin Naqshbandning birinchi piri — ustozi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni o‘rinbosarlaridan bo‘lmish Amir Sayyid Kulolga topshirdi. U tariqat bobida bilganlarini o‘rgatib bo‘lgandan keyin shog‘irdiga ijozat beradi. Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo‘lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab (hozirgi Qarshi) shahriga boradi. Taxminan 1389-yil Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida vafot etgan.

ADABIYOTLAR:

1. Usmonov I, Olimov S, Yo'ldashxo'djayev H, Faxriddinov Z, To'ychiyeva N, Jabborov N, Cho'tmatov J, Rahimov K, Komiljonova Z, Karimova S, Nurmuhammedov D, Erkaboyeva F, Jurayev O Turdiyeva D.. Tasavvuf atamalari. Movarounnahr nashriyoti, 2015 — 360 bet.

2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Buxoroning_yetti_piri
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pir
4. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

